

LUQMON BO`RIXON IJODIDA FOLKLOR SINTEZI

Ne'matullayeva Sohibaxon

Andijon davlat universiteti O'zbek adabiyotshunosligi
kafedrasi o'qituvchisi sohibaorinova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Luqmon Bo'rixonning "Qorxat" hikoyasi misolida ijodkorning folklorizmlardan foydalanish mahorati, bolalar o'yin folklorining yillar davomida qanday o'zgarishlarga uchraganligi yuzasidan tahlil amamlga oshirildi.

Kalit so'zlar: hikoya, folklorizm, motiv, ramz.

Annotation: In this article, on the example of the story "Korkhat" by Luqman Borikhon, the author's ability to use folklorisms, and the changes in children's game folklore over the years were analyzed.

Key words: storytelling, folklorism, motive, symbol.

Аннотация: В данной статье на примере рассказа Лукмана Борихона «Корхат» проанализированы способности автора к использованию фольклоризмов, а также изменения детского игрового фольклора с годами.

Ключевые слова: рассказ, фольклоризм, мотив, символ

Bir necha asrlardan buyon xalq orasida yashab, oz ahamiyatini yo'qotmay kelayotgan folklor janri bugungi kun o'zbek adabiyotining ham ajralmas qismlaridan birini tashkil etib kelmoqda. Hozirgi adabiy jarayonda ham xalq og'zaki ijodi namunalaridan unumli foydalanilgan holda turli hikkoya, qissa va romanlar yozib kelinmoqda. Zamonaviy o'zbek adabiyoti yozuvchilari orasida iste'dodli ijodkor Luqmon Bo'rixon o'zining turli roman, qissa va hikoyalarida folklor janri na'munalaridan ustalik bilan foydalanadi va uning elementlarini asar syujetiga shu qadar ustalik bilan kiritadi-ku, bularning barchasini Luqmon Bo'rixonning folklor na'munalarini qanchalik yaxshi bilganligini anglatadi. Ijodkorning hikoyalaridan biri bo'lgan "Qorxat" hikoyasi folklor an'alari asosidagi syujetni o'ziga qamrab olgan bo'lib, mazkur hikoyadaxalq o'yinlaridan biri bo'lgan "Qorxat" dan foydalanadi.

Birinchi galda "qorxat" qanday o'yin ekanligiga to'xtalib o'tsak.

O'zbek bolalar folklori o'yinlari ikki turga bo'lingan bo'lib, ular

a) doimiy o'yinlar;

b) mavsumiy o'yinlar.

Ayrim o'yinlar fasllar almashnuvidan qat'iy nazar o'ynalib kelinaveradi. Aksariyat bolalar o'yinlari vaqt belgisiga ko'ra doimiy bo'ladi. Masalan, "Beshtosh", "Berkinmachoq", "Chilim kes"...kabi o'yinlar yilning istalgan fasllarida o'ynalaveradi. Ba'zi o'yinlar esa yil bo'yi emas, muayyan fasllardagina o'ynaladi. Chunki ayrim o'yinlarning o'ynalishi muayyan faslga xos ob-havo va tabiiy iqlim sharoitlarni talab

qiladi. Qorbobo yashash, yaxmalak uchish, “Qorxat” kabi o`yinlar uchun qor yoqqan bo`lishi lozim. [1.43-bet]

Demak, qish faslining o`ziga xos iqlim sharoitini talab qiluvchi o`yinlar sirasiga kiruvchi bu o`yin asosan birinchi qor yoqqanda o`ynaladigan bo`lib, mazkur o`yinning turli o`ynalish usullariga ega bo`lib yozuvchi mazkur hikoyada bu o`yinining aynan, qog`ozga yozib o`ynaladigan turidan foydalangan. Hikoya bosh qahramoni Zarif ishga qunishibgina kelib, qunishibgina ketadigan, o`zini boshqalardan “uzoq”roq salqashga harakat qiladigan Zarif guppillab yog`ayotgan qordan o`zgacha ilhom oladi va yoshlik paytlarini eslab qoladi. *“O`sha daqiqalarda uning yuragi sog`inchmi, qo`msashmi, shunga o`xshash totli hislarga to`lib toshib borar, tinimsiz hazillashgisi, qah-qah otib kulgisi kelardi. Ko`z o`ngida xuddi qor uchqunlari kabi olis xotiralar charx urib yurar, beg`uborlik bolalik qiy-chuvi quloqlari ostida jaranglar edi. Birinchi qor yoqqan kuni qishloqda chinakam bayramona kayfiyat paydo bo`lardi...”*[2]

Odamlar bir biriga kayfiyat ulashish va birinchi qorni o`zgacha kutib olish uchun o`ynaladigan bu o`yinni kimga yozishni bilmagan Zarif o`ylay,o`ylay oxiri uch yoshli o`gli bilan ajrashib kelgan doim tund kayfiyatda yuruvchi Zahroga yozishga uni kayfiyatini ko`tarishga harakat qiladi. Lekin uning hamma o`ylagan niyyatlar puchga chiqadi va aybsiz aybdorga aylanib, qoladi. O`zining beg`ubor xislarining qurboni bo`lgan Zarif endi nafaqat, orzularidan endilikda ishidan ham ayrilishiga to`g`ri kelib qoladi. Har birimizni qurshab turgan atrofdagi odamlarning hammasi ham biz o`ylagan kabi sodda, beg`ubor yoki ko`ringani kabi “bechora” va “xo`rlangan” emasligining guvohi bo`lishimiz mumkin. Zero, Zahro boshlig`i bilan anchadan buyon ukasi uchun so`rab yurgan “nozik iltimos”i amalga oshadigan bo`ladi.

Xulosa, sifatida shuni aytish mumkinki, Luqmon Bo`rixonning bu hikoyasi inson dunyoqarashi va tafakkurining o`zgarishida, olamni qayta anglash jarayonida uzoq yillik tarixga ega bo`lgan folklor na`munalarining qay darajada ahamiyatga ega ekanligini ko`rishimiz mumkin bo`ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. Galiyev O`zbek bolalar o`yin folklori,-T.: “Fan”, 1998.
2. Luqmon Bo`rixon “Qorxat” hikoyasi. (Mutolla ilovasi)
3. Mirzayeva S. O`zbek realistik adabiyotida folklor an`analari. Folklorshunoslikdan o`quv- uslubiy qo`llanma,-T.: “Istiqlol”,2005.